

## Kitoblar

### UCh ZINA

Uch ajib zinadan o'tgaydir Inson,  
Go'yoki g'azalning uch go'zal bayti.  
Xohlar yo xohlamas, odam begumon  
O'zi uchun yashar bolalik payti.

Bir kun u kamolot yoshiga yetgay,  
Bu fasl hamisha umrlarga zeb.  
Inson tayyor turar sinovlarga shay,  
Yashaydi oilam, elu yurtim deb.

Keksalik yillarin so'rarsiz endi,  
Axir tajriba bor uning qo'lida.  
O'ylamang, shu bilan u to'xtab, tindi,  
Inson o'zin topdi Alloh yo'lida.

Istanbul, 2014 yil 18 yanvarъ

✍ Abdulla Oripov

### KUZ MANZARALARI

Yana dalalarga boshlaydi havas,  
Bog'larda hazonlar yonadi lov-lov.  
Do'stlarim, bu kuzning barglari emas,  
Mening yuragimdan to'kilgan olov.

Shoxlarda mezonlar yaltirar xira,  
Poyida shivirlar mening kuylarim.  
Do'stlarim, bular ham mezonmas sira,  
Bu mening chuvalgan, so'ngsiz o'ylarim.

Quyosh ham falakda bamisli ro'yo,  
U endi yondirmas, yaltirar faqat.  
Do'stlar, u ham endi quyoshmas aslo,  
U olis yoshlikda qolgan muhabbat.

1967

✍ Abdulla Oripov

### TAЪZIYa

Sen ketding, qolganlar  
O'ynasin, kulsin,  
Makoning, iloyo,  
Nurlarga to'lsin.  
Aslida, bu dunyo  
Tashvishlaridan  
Qutulib ketganing  
Muborak bo'lsin.

AQSh. Xъyuston. 2015 yil 14 oktyabrъ

✍️ Abdulla Oripov

### O'RMONDAGI VOQEA

Atab dushmaniga yoki do'stiga,  
Bomba tashladilar o'rmon ustiga.

Biroq u negadir portlamay qoldi,  
O'rmon o'rtasida toshday joy oldi.

Hayvonlar qiziqib kela boshlashdi,  
Avval hadiksirab nazar tashlashdi.

— Bu ne? — deb boshini qashladi bo'ri,  
Lol edi arslon ham — hayvonlar zo'ri.

Hech neni tushunmas ayiq va sichqon,  
Anqayib turishar qushlar ham g'ujg'on.

Hidlab ko'rishdilar, yalashdilar, bas,  
Anglab yetdilar-ki, uni yeb bo'lmas.

Hayvonlar tarqaldi yig'ilgan joydan,  
Sho'rliklar, bombani bilishsin qaydan?

Aslida ildizi bittadir hayot,  
Yashashga haqlidir jami maxluqot.

Tiriklikka shuni qildingmi ehson,  
Tafakkur sohibi, muhtaram Inson!

2015 yil 3 may

✍️ Abdulla Oripov

### TASHLANDIQ VAGON

Vokzal ulkan shahar chegarasida,  
Poezdlar shamoli tinmay ufurar.  
Chekkada, temir yo'l zahirasida  
Faqat bitta vagon mung'ayib turar.

Qayoqdan kelgan u? Bilmaydi birov,  
Uning na yo'lovchi, na egasi bor.  
Yoz bo'yi saraton yondirar lov-lov,  
Qish o'tib, erimas tomidagi qor.

Bir zamon yo'lchiga ko'shk bo'lgan u ham,  
Vodiylardan o'tgan, sahrodan o'tgan.  
Bulutday viqorli, shamolday ildam,  
Ne-ne manzillarga qadami yetgan.

O'tgan yo'llarini eslasa hamon  
O'zi ham ishonmas yurganligiga.  
Bag'ridan joy topib qanchalar inson,  
Hatto shohlar bazm qurganligiga.

Hech kim qatoriga endi ulamas,  
O'rnidan jilmoqqa yetmaydi xoli.

Hatto suvaraklar yaqin yo'lamas,  
Tashlandiq vagon u. Shuldir ahvoli.

2013 yil 25 dekabrъ

✉ Abdulla Oripov

#### BASHORAT

Rahmatli ustozlar,  
Domlalarim, Siz,  
Dorilfunundagi bilim tayanchi.  
Qabringiz qoshida deyman cho'kib tiz:  
Umringiz yakuni g'oyat ayanchli.

Bashorat qildingiz nimalarnidir,  
Ularning hech biri topmadi isbot.  
Boshga ko'tarardik Sizni baribir,  
Chunki bilmas edik, qanaqa hayot.

Bizga uqdirdingiz, butkul yer yuzi  
Ketib borayotir noto'g'ri yo'ldan.  
Tarixni yoritar Marksning so'zi,  
Boshqalar baxtini boy bergan qo'ldan.

Bizga uqdirdingiz, e'tiqod, imon,  
Ko'p borsa, chilimning tutuni, xolos.  
Sira do'st bo'lmaydi qorni to'q inson,  
Dunyoni yangilash bizlargadir xos.

Bizga uqdirdingiz, ummon ortida,  
Bir tuzum yotibdi, tagidan chirib.  
Oxir tong qoldingiz tarix oldida,  
Aytgan gaplaringiz aksini ko'rib.

Nahot, o'yin edi inson taqdiri,  
Nahot, o'tgan umr tavakkal yakkash.  
Nahot, jaholatdir bu holning siri,  
Qoldi bo'yingizda basharni aldash.

Rahmatli ustozlar,  
Domlalarim, Siz,  
Achchiq qismatingiz ibratdir biroq.  
Uzr so'ramoqlik shart ekan so'zsiz,  
Bashoratdan avval, foldan oldinroq.

AQSh. Хъyuston. 2015 yil 12 sentyabrъ

✉ Abdulla Oripov

#### MUALLIM

Muallim haqida so'zim ushbudir:  
Muallim kamolot ichra ko'zgudir.  
O'qidim Gerodot, tarixni ko'p bor,  
Forobiy, Danteni takror va takror.

Barini o'qidim, lol qoldi aqlim,

Bariga ustozsan o'zing, muallim.  
Alisher qalbiga solgan seyr-fayz  
Sensan, ey muallim, ustoz Abul-Lays.

Qutlug' xonadonda qutlur kalom bu,  
Hamid Olimjon bu, G'afur G'ulom bu.  
Buyuk Temur sendan topgandir ta'lim,  
Sen shundoq, aziz zot, aziz muallim.

Rost aytsam, o'zingsan eng avval daho,  
Sen hayot ganjida durri bebaho.  
Ulug' ayyomingda she'riy kalom bu,  
Shogirdlar nomidan qutlug' salom bu.

1972

✍ Abdulla Oripov

#### USTODI AVVAL

Nega she'r yozmayin yurakdan yonib,  
Nega ta'zim etmay sizga bu mahal.  
Nega xizmatigiz qilmay quvonib  
Ey aziz muallim, ustodi avval.

Sizning ta'limingiz olmagan kim bor,  
Siz-ku yuraklarda ilk ziyo yoqqan.  
Olimmi, shoirmi va yo san'atkor -  
Ilk bor sizga tomon ustoz deb boqqan.

Mitti go'dak chog'idan to umr bo'yi  
Sizning chehrangizga mamnun boqamiz.  
Sizgadir yurakning jarangdor kuyi,  
Oqil Sharafiddin, mashhur otamiz.

Bitta harf dardida riyozat chekib,  
Oqibat ko'kka ham chiqolgan inson.  
Ne ajab sizlarni baxtiyor etib,  
O'rnidan dast turib, bosh egga shu on.

Yolg'iz farzandimiz qolsa tumovlab,  
Tushamiz vahima, vasvasasiga,  
Siz-chi, dosh berasiz necha o'n yillab  
Minglab mitti zotning mashmashasiga.

Buyuk Alisherbek lutf etgan misol,  
Savod o'rgatdingiz qancha ranj bilan.  
Qoplab bo'larmikan bu qarzni alhol,  
Uzib bo'larmikan yuzta ganj bilan.

Shafqat ham, mehr ham qalbingizda but,  
Na ranju, na horish, ohu volalar.  
Sizning qarshingizda saqlaydi sukut  
Oltmishga kirsam ham shogird bolalar.

Dilda ziyo borki umr sarafroz,

Mayli, u hamisha baxt bilan to'lsin.  
 Ey, aziz muallim, ey, aziz ustoz,  
 Bukun bayramingiz muborak bo'lsin.

1980

✍️ Abdulla Oripov

#### MUALLIMLARGA

Nechog' baxtiyorman, ta'zimda shu tob  
 Sizning sha'ningizga bitmoqdaman bayt.  
 Ne odam bo'lardim, qo'limda kitob  
 Biror harf tanimay tursaydim loqayd.

Siz-ku "Alifbo"dan "Qomus"gacha to  
 Bari-barisini tanitgan ustoz.  
 Ilk bor Siz ko'rsatgan duraxshon Zuhro  
 Bukun she'rim ichra tashbehdur mumtoz.

Siz mo''jaz yurakda yoqolgan yog'du  
 Oqibat quyoshdek socha olur nur.  
 Buyuklar haqqiga qasamyod gap bu:  
 Sizdan boshlanadi asli Tafakkur.

Olamda ko'p erur muborak onlar,  
 Tabarruk zotlar ham garchand ko'p erur.  
 Sizgadir ilk rahmat, aziz insonlar,  
 Munis muallimlar, Sizga tashakkur.

1974

✍️ Abdulla Oripov

#### ShOIR YuRAGI

O'tar bu ko'prikdan jamiki jonzot,  
 Chumolidan tortib fillar ham o'tar.  
 Sultonlar o'tadi goh shod, goh noshod,  
 Zanjirlarin sudrab qullar ham o'tar.

Elchilarga o'xshab turfa zamondan  
 Shaloq aravalar, "mers"lar o'tadi.  
 Ro'baro' kelishib ikki tomondan,  
 Bir-biriga tamom terslar o'tadi.

Suyishganlar o'tar suyab bir-birin,  
 Buzuvchilar o'tar, o'tar ustalar.  
 Hushyorlar o'tadi tejab ko'z qirin,  
 O'tadi emaklab piyonistalar.

O'tib borayotir ana juft guruh,  
 Biri sho'x, birovin ko'zlarida nam.  
 Yetaklab bormoqda birini shukux,  
 Boshqa birovini yetaklagan g'am.

Oliftalar o'tar - g'arib siyrati,  
 Botirlar o'tadi - qalbida o'tlar.  
 Beshiklar o'tadi - dunyo ziynati,  
 O'tadi lapanglab, vazmin tobutlar.

Muttasil bu yo'lda keladi to'qnash  
 Hyp bilan zulumat, o'lim va hayot.  
 Bu ko'prik olamning o'ziga o'xshash,  
 Bir farqi - sohibi ixtiyorsiz zot.

Ko'prik ostidagi jo'sh urgan daryo,  
 Suv emas - o'tganlar taxir ko'z yoshi.  
 Har neni ko'targan bir o'zi tanho.  
 Bor na ta'mirchisi, na bir yukdoshi.

Bu ko'prik, bu ko'prik qulasa agar.  
 Ne hislar qolardi sarson-sargardon.  
 Garchi qismatida bor qancha xatar,  
 Har nechuk bariga u balogardon...

2000 yil, avgust

✍ Abdulla Oripov

#### QIZIQISH

Agar yoqmay qolcang,  
 Terc bo'lca dunyo,  
 Cug'irib o'tirmac biror tishingni.  
 Tayyor ishtahangni bo'g'ib mutlaqo,  
 Yo'qotar taomga qiziqishingni.

Tag'in cen ko'ziga ko'rincang yomon,  
 Tortib olmaca ham amal, ishingni.  
 Bormaydigan qilar idorang tomon,  
 O'chirar hafcalang, qiziqishingni.

Maydalashib yurmac dunyo yuz burca,  
 To'kin ham qilgaydir yozing-qishingni.  
 Va lekin loqaydcan gullar qulf urca,  
 Co'ndirar borliqqa qiziqishingni.

Bir kuni zerikar o'zi kajraftor,  
 Unutar kelajak va o'tmishingni.  
 Unga o'yin kerak, o'yinchoq darkor,  
 Yana tiriltirar qiziqishingni.

2012 yil 24 dekabr

✍ Abdulla Oripov

#### TAFAKKUR MADHI

Beruniy sha'niga yo'q aslo ta'rif,

Kolumb ham davriga yarashgan ko'zdek.  
Biroq hanuzgacha qalam ko'tarib,  
O'zicha kelmagan bu joyga o'zbek.

Sirli yurt sanchiqday bergandi azob,  
Sho'roning kibrli saltanatiga.  
Derdilar, bormangiz, bo'lgaysiz xarob,  
Burjuyning chirigan mamlakatiga.

Magar kelsa hamki birorta sayyoh,  
Yozg'irib yozardi yetgancha kuchi.  
Emishki, ko'chalar to'la ohu voh,  
Mashaqqat karvonin ko'rinmas uchi.

Go'yo payqashmadi g'alabani sof,  
Armstrong oy uzra qo'yganda qadam.  
Yo, falak, bandangda bormi hech insof,  
Shunchalar hasadgo'y bo'larmi odam.

Eplay olmagan u o'zini aslo,  
Butlab ham bermagan birovning kamin.  
Shu bois, dunyoda to'xtamas g'avg'o,  
Shu bois, o'nnglanmas sho'rlik bu zamin.

Va lekin o'zbekka tafakkurdir zeb,  
Ma'rifat merosdir chunki qonida.  
Agar kerak bo'lsa, ilmu fanni deb  
To'y bergay Samarqand Registonida.

AQSh. Xyuston. 2015 yil 20 avgust

✍ Abdulla Oripov

#### UMMON BO'YIDAGI O'YLAR

Ummon sohilida kezaman bedor,  
Tong qolib Tangrining mo''jizasiga.  
Qulog'im tutaman takror va takror,  
Hayotning abadiy, o'lmas sasiga.

Ezgu diydor uchun aytaman rahmat,  
Mavjlarga qo'shilib ketadi so'zim.  
Tutgan bir qo'limdan kuyovim Ahmad,  
Bir qo'limdan esa Mavluda qizim.

Shukurlar deymanu ko'zim yoshlayman,  
Jajji nabiralar mehriqa qona.  
Irim, deb ummonga tanga tashlayman,  
Zora, qaytib kelsam sen tomon yana.

Mening ko'z o'ngimdan har lahza, har dam  
Aslo ketgan emas yurtim jamoli.  
Uzoq bu ummonda suzib yursam ham,  
Yuzimga urildi go'yo shamoli.

Hamisha o'zingdan oldda bo'l, Inson,

Bu dunyo barchaga barobar, bilgil.  
Tepangda turgan shu dumaloq osmon,  
Sharqda ham mavjuddir, tasavvur qilgil.

Alloh dargohiga ruxsatin berib,  
Taklif etilsaydi jami odamzod.  
Boshqalar qatori ko'ksini kerib,  
O'zbek ham yurardi mamnun hamda shod.

Xudo yaratmagan sarhadlar yasab,  
Bandasi orttirgay o'ziga malol.  
U yuksak bo'lmadi tog'larga o'xshab,  
Keng ham bo'lolmadi ummonlar misol.

O'zga ma'volarga keldim men nechun,  
Begona joylarga mehrimni sochib.  
Olis yo'llar bosdim sihatim uchun,  
Balki g'avg'olardan nariga qochib.

Bir mantiq hayotda uchraydi biroq,  
Qoshida milyonlar o'yga tolgaydir.  
Yomonlik tilagan yashaydi uzoq,  
Yaxshilik qilganlar nochor qolgaydir.

Qo'shnining mushugi erinmay aslo,  
Bizning yerto'lada ovlaydi sichqon.  
Hozircha tush menga mansubdir, ammo,  
U ham qo'lga tushgay, topsalar imkon.

Afsuslar chekaman Mahshargacha to,  
Unutdim o'z arkim ko'ngurasini.  
Nima deyarimni bilmasdan hatto  
Chalдим birovlarining do'mbirasini.

Bugun hech kimsaga keltirmas sharaf  
Yasama shuhratu soxta savlatlar.  
Lekin iymon keltir tegrangga qarab,  
Bordir buyuk zotlar, ulug' davlatlar.

Janob Rasululloh aylab marhamat,  
Chaqirmish ummatin bardosh, sabrga.  
Dedilar, o'tganni qarg'amang minba'd,  
Tegmang ular yotgan go'rga — qabrga.

Meni — ku tiriklay mahv etdi bular,  
Hatto bezdirdilar butkul olamdan.  
Bunday qabohatdan tog'lar ham qular,  
Dengizlar sho'r tortar bunday alamdan.

Qirg'iy uchib yursa hovling uzra gar,  
Tovuqda qolarmi birorta jo'ja.  
Yurtni taladilar necha- necha g'ar,  
Necha qoracha- yu, necha bir xo'ja.

Menga ajablanib qarama, bolam,

Hamrohing bo'lolsin bardosh va toqat.  
Men balki keksayib, charchagan odam,  
Xolislik izlagan kuychiman faqat.

Topsam ezgulikni chulg'adi surur,  
Barobar tuyuldi yozim va qishim.  
Adolat qalbinga baxsh etdi huzur,  
Boshqa yumush bilan yo'q zarra ishim.

Mudom hayolimda u qutlug' ajdod,  
Muborak taftlari quyoshlar qadar.  
Magarkim, ularga ekanman avlod,  
Nega yo'qolayin nomsiz va badar?

Zuryodim erursan o'zing, nabiram,  
Olgin yulduzlarni qo'lingni cho'zib.  
Axir qonim jo'shar taningda shu dam,  
Nega sen ketmassan mendan ham o'zib.

Bir umr kurashdik orzular uchun,  
Havoyi so'z aytib, o'rtama jonni.  
Dunyo karvonining boshida bir kun  
Ko'rsam yetarlidir, O'zbekistonni.

AQSh. Atlantika. 2015 yil 1 sentyabr

✍ Abdulla Oripov

KEKSA MUHOJIR

— Nega qadding egik, nega boshing xam,  
Nega nigohingni tortadi tuproq?  
— Mening yer ustida tanishlarim kam,  
Mening yer ostida do'stlarim ko'proq.

1986

✍ Abdulla Oripov

\*\*\*

Hali oldindadir go'zal kunlarim,  
Hali lab tegmagan kulgular oldda.  
Vaznga tushmagan qo'shiqlar oldda,  
Hech nima emasdir bu ko'rganlarim.  
Hammasi oldinda, g'am ham, alam ham,  
Ayriliq ham, qanotlari zil...  
Sakson yoshli bobo, sen ham dunyoning  
Hammasini ko'rdim, demagil.  
Aslo unday dema,  
O'n gulimdan biri ham  
Ochilmagan deb turgil har vaqt.  
Hammasini ko'rdim,  
To'ydim degan kuning, bilsang,  
Yashamoqqa qolmaydi hojat.

1960

✍ Abdulla Oripov

## VAFO

“Menga vafo qilmagach sanam  
Xotinlarga hurmatim nechun?”  
Shu baytlarni yozayotgan dam  
Osonmidi Lermontov uchun.

Endi misga aylangan oltin,  
Vafo so'zin anglashar arang.  
Lermontovni ayblashdan oldin,  
Hayotga ham qayrilib qarang.

2015 yil 8 fevral

✍ Abdulla Oripov

## MANTIQ

Dunyodagi jamiki ne'mat,  
Inson uchun yaralgan, derlar.  
Daryolar ham tegrada faqat  
Bizlar uchun taralgan, derlar.

Yer ostida konlar ham shundoq,  
Tayyorlangan faqat biz uchun.  
Yog' bilan sut, patir va qaymoq  
Oshiradi tanamiz kuchin.

Men mantiqni sevdim juda ham,  
Lekin chiqdi savollar doim.  
Xo'sh, kim uchun yashaydi odam?  
Yolg'iz O'zi bilgay Xudoyim.

AKSh, Xyuston, 10.09.2016

✍ Abdulla Oripov

## ROSTGO'YLIK

Meni laqillatib,  
Aytaverma so'z,  
Mana bu otashdir,  
Mana bu-chi, muz.  
Qurbaqa emasdir  
Malika aslo,  
Yaxshini yaxshi de,  
Yovuzni yovuz.

2015 yil 9 sentyabr. AQSh, Xyuston

✍ Abdulla Oripov

## XONAKI FIL

Yillarim o'tdilar,  
O'rgandim qo'lga,  
Aylandim siz ko'rgan  
Xonaki filga.

Garchi xo'jayinim  
Qiltiriq, oriq,  
Jonimni sug'urib  
Olmog'i aniq.

Firib tushmasaydi  
Agar yoniga,  
Uloqtirar edim  
Hind ummoniga.

Qamchin va tayoqning  
Zahrin bilmabsiz,  
Dunyoga kelmabsiz,  
Hali kelmabsiz.

2015 yil 4 sentyabr. AQSh, Xbyuston

✉ Abdulla Oripov

#### MASʼULLAR

Yerda taraqqiyot avjiga mindi,  
Ega topilgaydir har qanday korga.  
Avval bitta qassob yetardi, endi  
O'nta qassob bordir bitta qo'chqorga.

Ilgari zamonlar dovrug'i baland,  
Bir baxshi yashardi ovulda g'olib.  
Bugun katta-kichik ijod bilan band,  
Kuylar, xalacho'pni qo'liga olib.

Qachondir kattakon mahalla-ko'yni,  
Uddalab kelardi yolg'iz oqsoqol.  
Hozir rota bo'lib boshqarar to'yni,  
Basdir, yodda qolgan uch-to'rtta maqol.

Gaplarim kinoya, pichingdan yiroq,  
Bu - yangi asrning mutoibasi.  
Mas'ullar yanada bo'lsalar ko'proq,  
Shakllanib borar halq toifasi.

Go'daklar o'zini posbon deydi cho'ng,  
O'yinchoq miltig'in otib tolmaydi.  
Hamma qo'riqchiga aylangandan so'ng,  
Qo'riqlanadigan narsa qolmaydi.

Xo'sh, undan keyin-chi? Yuz berar ne hol?  
Yana majlis qilib, yo'riqlashadi.  
Vazifa ko'rinib turibdi yaqqol:  
Endi bir-birlarin qo'riqlashadi.

---

2015 yil 3 sentyabr. AQSh, Xbyuston.

✉ Abdulla Oripov

ChALA IMORAT

Og'zin ochib yotar chala imorat,  
Atrofi o'rayu toshdan iborat.

Har yon chakalakzor, burgan va yantoq,  
Ostona o'yilgan, uzilgan ravvoq.

Xotirami deysan u qattol jangdan,  
Yo yodgor asrlar qoldirgan changdan.

Qora tuynuklarda uvillar shamol,  
Qamish tom gajirlar mahzun, bemajol.

Bahor, yoz o'tadi, hanuz u chala,  
Kalamushlar g'uj-g'uj, qushlar xam gala.

Tashlandiq bu uyning sohibi kimdir?  
Yo falak! Bu holning sababin bildir!

Bir qush yarim tunda beradi sado,  
Savolimga javob qilganday go'yo:

- Ne kerak gapingning nega, negasi,  
Yo shoir, yo marhum buning egasi.

2002 yil, avgust

✉ Abdulla Oripov

O'ZBEKMAN

Yangi bir asrning ostonasi bu,  
Yetishdim umrimning qutlug' yoshiga.  
Tilimda shukrona, dilimda g'ulu,  
Tarix sarkotibin keldim qoshiga:

Mana, men o'zbekman, qo'limda tug'im  
Va barcha a'molim bitilgan kitob.  
Shuning ichidadir borim va yo'g'im,  
Shuning ichidadir men uchun oftob.

O'zbekman, inshoolloh, iymonim butun,  
Tilim qisiq emas bashariyatdan.  
Kimgadir tengdirman, kimdandir ustun,  
Zuvalam qorilgan samimiyatdan.

O'zbekman, gohida iqbolim kulib,

Gohida o'zimdand chiqqan ofatim.  
Dunyoni olsam-da jahongir bo'lib,  
Go'dak yig'isiga yo'qdir toqatim.

O'zbekman, qanchalik jafu chekmayin,  
O'zimga haq edim, o'zimga haqman.  
Yashadim yovlarga bo'yin egmayin,  
Bugun o'z erkiga erishgan xalqman.

Istiqlol, ketma yurt peshonasidan,  
Tole, tark etmagin bizni ilohim.  
Mana, yangi asr ostonasidan  
O'tdim. Bismillohir Rohmonir Rohiyim.

2000 yil, dekabr

✍️ Abdulla Oripov

### IMTIHON

Sen Vatan haqida berma ko'p savol,  
Lof urma Vatanning muhabbati deb.  
Uni mansab kabi aylama xayol,  
Yoxud ma'ruzangga emasdir u zeb.  
Vatan tanangdagi jondir, qondir bu,  
Vatanni sevmuqlik imtihondir bu.

Bu ulug' sevgida ilohiylik bor,  
Vatanni chin farzand faromush etmas.  
Menga o'z tuyg'umni o'rgatma zinhor,  
Inchunin, kibrning bozori o'tmas.  
Rost gapni yolg'ondan farqlar ondir bu,  
Vatanni sevmuqlik imtihondir bu.

Asl qahramon kim yorug' dunyoda?  
G'oyasin ta'maga almashmagan zot.  
Chug'urchuq ko'paysa haddan ziyoda,  
Burgut bo'lib yashash oliy mukofot.  
Qul ham yurtin sevsu shohdir, xondir bu,  
Vatanni sevmuqlik imtihondir bu.

Garchi ko'hna zamin umum makondir,  
Insonning har joyda yonsin chirog'i.  
Mo''jaz bo'lsa hamki, kulbang oshyondir,  
Ona dargohidek uning quchog'i.  
Sen uchun poyonsiz kakhkashondir bu,  
Vatanni sevmuqlik imtihondir bu.

Azal musofirdir dunyoda odam,  
Ruhim garchi sobit, muallaq tanim.  
Bir umr qo'yningda muqim tursam ham,  
Sog'inib yashadim seni, Vatanim.  
Mehr bir, nafrat ham bir tomondir bu,

Vatanni sevmqlik imtihondir bu.

Mayli suymasinlar meni g'animlar,  
Yo'limni to'ssinlar raqiblar hatto.  
Vatan har qayda ham mayoqdek imlar,  
G'ururim yuksalar samogacha to.  
Hech kimga berguvsiz dovrug', shondir bu,  
Vatanni sevmqlik imtihondir bu.

2015 yil 24 iyul. AQSh, Xbyuston.

✍ Abdulla Oripov

#### VATAN UChUN YaShAYLIK

O'n gulingdan bir guling ochilmagan derdilar,  
Yo'llaringga sochqilar sochilmagan derdilar.  
O'n guling ham charaqlab ochildi-ku, oh, yurtim,  
Yo'llaringga zar-kumush sochildi-ku, oh, yurtim.

O'zbekiston - yagona Vatan uchun yashaylik,  
Vatan ichra bu go'zal chaman uchun yashaylik.

Aytmasinlar g'animlar, kimlargadir zor bu yurt,  
Buyuk Sohibqironi, Alisheri bor bu yurt.  
Alloh o'zi yetkazgan in'omini asragay,  
To'g'rosini, taxtini, islomini asragay.

O'zbekiston - yagona Vatan uchun yashaylik,  
Vatan ichra bu go'zal chaman uchun yashaylik.

Kel, azizim, yonimga, yulduzmisan, oymisan,  
O'zbekimsan hamisha, yupunmisan, boymisan.  
Vatandoshim, shu tengsiz Vatanni kuylashaylik,  
Zamon keldi, bizlar ham dunyoga bo'ylashaylik.

O'zbekiston - yagona Vatan uchun yashaylik,  
Vatan ichra bu go'zal chaman uchun yashaylik.

2001 yil, avgust

✍ Abdulla Oripov

#### TUG'ILGAN KUN

Ohorli do'ppingni kiyib ol, o'g'lim,  
Darvoza oldini supur, kelinjon.  
Tortmamda turibdi nafaqa pulim,  
Oling bolalarga sovg'a bir jahon.

Tag'in aytib qo'yay, unutmabuni,  
Kampir, hamsoyanga chiqartirgin osh.  
Bugun Istiqlolning tug'ilgan kuni,  
Bugun tantanaga Davlat o'zi bosh.

2013 yil avgust

✍ Abdulla Oripov

## HURRIYAT

Hurriyat, muqaddas bayrog'im o'zing,  
Garchi g'anamlar bor ichu toshingda.  
Men uchun faxrdir har aytar so'zing,  
Bir umr parvona bo'lgum qoshingda.

Hurriyat, dadil boq, yovlar ig'vosi  
Tutsa, etagingdan tutaversinlar.  
Hasadga to'ladir ular da'vosi,  
Oldingdan bari ham o'taversinlar.

Hurriyat neligin mash'um zamonda  
Poymol bo'lgan huquq, haqqimdan so'rang.  
Qadrin topolmayin yashab armonda,  
Tili zabun bo'lgan xalqimdan so'rang.

Hurriyat neligin xoki xor bo'lgan  
Imom Buxoriydek Insondan so'rang.  
Watani o'ziga tangu tor bo'lgan  
Qodiriydan so'rang, Cho'lpondan so'rang.

Odamzot bor ekan ko'kka tikib ko'z,  
Orzu qilganini kutgay betoqat.  
Tarix tuhfa bersa, olgay u so'zsiz,  
Hurriyat atalmish gavharni faqat.

Shoirilar yozgaydir qasidasin ham,  
Kuylab hurriyatning xushsafosini.  
Rizqin terib yursin, mayli, har odam,  
Har el aziz tutsin Rahnomasini.

Bolam, sen yo'ldasan, yet niyatingga,  
Ozod kechgan umr – jannatlardan soz.  
Bilib qo'y, shu qutlug' Hurriyatingga  
O'n sakkiz ming olam fido bo'lsa oz!

2009 yil 20 iyul

✍️ Abdulla Oripov

## TOG'LAR HIKOYASI

Bundan ko'p yil muqaddam,  
Boshqa bir zamonlarda.  
Bo'lib o'tdi zo'r majlis,  
Hisortog' tomonlarda.

Tog' degani shunchaki  
Tomoshagoh joy emas.  
Tog'liklarning yegani  
Nuqul bolu moy emas.

Yil kelmasa o't qovrab,  
Buloqlar qurib bitar.  
Bir sel bossa buvangning

Go'rini yuvib ketar.

O'zidan o'tganini  
Tog'lik o'zi bilgaydir.  
Moliga shoqol, bo'ri  
Sherikchilik qilgaydir.

Chora izlab kuyovning  
Rangi-ro'yi bo'zargan.  
Tappi yoqib, kelinning  
Ikki ko'zi qizargan.

Xullas, masala jiddiy,  
Tog'liklarga yordam shart.  
Zo'r majlis qaror qildi:  
—Taklif bilan chiqsin mard!

Kimdir dedi: — Dovonda  
Yangi shior ilaylik.  
Va albatta yonida  
Qizil burchak qilaylik.

Kimdir dedi: — Raisman,  
Jamoam deb kuyaman.  
Bo'rilarga qopqonni  
Mening o'zim qo'yaman.

Bularning bari zarur,  
Choyxona, ko'prik, shiypon.  
O'sha payt qo'rqa-pisa  
Qo'l ko'tardi bir cho'pon.

Dedi: — Eshitganimni  
Eslab qoldim shu choqda.  
Qaydadir tappi emas  
Gaz yonarmish o'choqda.

Shu mahal zo'r majlisni  
Zo'r to'lqin chulg'ab oldi.  
Qah-qah urib nechalar  
Qornin changallab qoldi:

—Qarang buning gapini,  
Charx uradi osmonda.  
Bo'larini bilmaydi,  
Shuning uchun cho'pon-da!

O'tovimda gaz go'yo  
Shamolday yelsin deydi.  
Qo'yib bersang, tog'larga  
Poezd ham kelsin, deydi.

O'sha kuni zo'r majlis  
Tarqaldi xaxolashib.  
Yangi chiqqan lofchi deb,

Cho'ponni baholashib.

Vo ajabo, Allohning  
Dargohi xo'b keng ekan.  
Gohida bir daqiqa  
Asrlarga teng ekan.

Goh odamzod ming yillab  
Yalov qilgay yolg'onni.  
Alloh uni rostlay deb  
Yuborgay bir Insonni.

Zo'r majlisdan sal o'tmay  
Zamonlar chevrildilar.  
Yolg'on ketib yolg'onga,  
Rost — rostga evrildilar.

Cho'ponning lafzi bilan  
So'z aytganmi Jabroil.  
Zamon uning gapiga  
Moyil bo'ldi, ha, moyil!

O'choqlarda lovullab  
Gazlar yona boshladi.  
Kelinchaklar tappini  
Bir chekkaga tashladi.

Mo''jiza ataysizmi,  
Tush deysizmi — farqi kam.  
Bir kuni deng, tog'larga  
Kirib keldi poezd ham!

Elu yurtning ko'zicha  
Bunyod bo'ldi hammasi.  
Ta'riflashga bir hovli  
Baxshi kerak chamasi.

Zo'r majlisda qatnashgan  
O'sha kazo-kazolar,  
Katta-kichik, baland-past,  
Hokazo-hokazolar.

Cho'ponning o'toviga  
Turtinib kelishdilar.  
Gaz o'choq kabobidan  
Gazak ham qilishdilar.

Dedilar: — Hoy birodar,  
Uzr, ko'zga ilmabmiz.  
Aytganing bari bo'ldi,  
Ta'birini bilmabmiz.

O'sha yig'in zo'r tarix,  
Esdan chiqmas umrbod.  
Qatnashgan ekan unda

Mustaqillik degan zot!

2011 yil avgust

✍️ Abdulla Oripov

"AYBDOR"

Hech kimsa demagay: «Gunohkor o'zim»,  
Aybdor zamonadir, aybdordir tuzum!  
O'g'ri qo'lga tushib qamalgan bir chog',  
Aybdori, albatta, Stalin olchoq.

Ustingdan yozadi bir quloch tuhmat,  
Deydi: «Chora ko'rmas, aybdor hukumat!»  
Sigiri sut bermas, oh chekar nochor,  
O'ylab topolmas hech, bunga kim aybdor?

2006 yil 10 oktyabr

✍️ Abdulla Oripov

SAN-FRANTSISKOLIK TALABA BILAN SUHBAT

(Oq she'r)

Mening gapim bilan dunyo o'zgarmasa,  
Sening gaping bilan dunyo o'zgarmasa,  
Uning gapi bilan dunyo o'zgarmasa,  
Ahvol shundoq ekan, deb jim o'tira bersak —  
Yaxshimi?  
Quyosh bir kishiniki emas, shubhasiz,  
Yulduzlar bir kishiniki emas, shubhasiz,  
Oy va yer bir kishiniki emas, shubhasiz,  
Modomiki, shundoq ekan, nechun bu taloto'p —  
Nechun bu sho'rish?  
Stalingradda halok bo'lganlarning,  
Sonmida halok bo'lganlarning,  
Sabra-Shatilada halok bo'lganlarning,  
Yashashga haqlari bormidi, axir?  
Bor edi, shaksiz!  
Bil'aks hayqirmoq kerak — jim  
o'tirgandan ko'ra,  
Tiriklikni talab qilmoq kerak — jim  
o'tirgandan ko'ra.  
Baqirmoq, ha, baqirmoq kerak — jim  
o'tirgandan ko'ra.  
Baqir, ha, baqir, quloqlari batang bo'lsin  
toki —  
Urushqoq afandilarning...

1985

✍️ Abdulla Oripov

Oqshom

Ayting! Yellar bemahalda esmasun,  
Yosh nihollar boshin yerga egmasun.  
Ayting, bemahalda essada,  
Tegsa manga tegsun, yora tegmasun.

Yor ko'yingda ko'p dovonlar oshganman  
Daryo ko'rsam daryo bo'lib toshganman.  
Bir parining visoliga shoshganman,  
Ayting, yellar bemahalda esmasun  
Tegsa manga tegsun, yora tegmasun.

Yorki, oqshom - nozli uyquda hali  
Muxlisining vasli qo'rquvda hali  
Ulki orom olguvchi quvda, hali.  
Ayting yellar bemahalda esmasun,  
Tegsa manga tegsun, yora tegmasun.

Visol dami bo'ron bo'lsa, mayliga  
Ul sho'xi-shan hayron bo'lsin, mayliga  
Bo'ronlarga o'rgatarman, esmangiz,  
Hey siz yellar, yor oromin buzmangiz.  
Ayting, yellar bemahalda esmasun  
Tegsa manga tegsun, yora tegmasun.

1960 yillar

✍ Abdulla Oripov

BAXSHIYO NA

HAYOT AJOYIBOTLARI

Bir umr yashading ko'zingni yoshlab,  
O'zi yo'q omaddan noliding sekin.  
Atay keltirdilar daryoni boshlab,  
Suv sening hovlingga chiqmasdi lekin.

Axir po'lat emas bu jonu bu tan,  
Ayoq va izg'irin yalayveradi.  
Himoya qilishar nuqul bombadan,  
Qumursqalar esa talayveradi.

2015 yil 2 avgust. AQSh, Xbyuston.

✍ Abdulla Oripov

Shoir Usmon Azimga

Usmon shoir, yosh bo'lsang ham  
Qo'llab yubor,  
Baxshiyona she'rga meni  
Yo'llab yubor.  
Bu dunyoda nima ko'pdir -  
Tashbeh ko'pdir,  
Ajabtovur obrazlarni

Mo'llab yubor.  
Ba'zi birov, senu menga  
Qumsan deydi,  
Men gapiray, o'tiraber,  
Jimsan deydi.  
Ustozni-ku nazar-pisand  
Qilmas ular,  
O'rni kelsa, otasiga  
Kimsan, deydi.  
Yo'lda nogoh uchrab qolsa  
Biror rahbar,  
Sodiq itday ergashadi  
Balxga qadar.  
Kerak bo'lsa, kuzatadi  
Hammomgacha,  
Tiz cho'kadi, buyrug'ini  
Bersa agar.  
Boy zotini ko'rganda-ku  
Uchar hushi,  
Qolib ketar qarindoshu  
Tengu to'shi.  
Dunyo topgan tentak kabi  
Quvonadi,  
Sarqitidan ko'z uzolmas  
Ko'ngil qushi.  
Shoirman, deb chiqqanlarning  
Yarmi po'kdir,  
Xo'rozchaday qichqiradi,  
Qorni to'qdir.  
Ramazonda ravgan aytgan  
Bolalardan,  
O'lay agar, tirnoqcha ham  
Farqi yo'qdir.  
Bir maktabda hammamiz ham  
Saboq oldik,  
Yolg'on-yashiq maqtovlarni  
Ishga soldik.  
Vo ajabo, iljayishib,  
Tirjayishib,  
O'zimiz ham o'shalarga  
O'xshab qoldik.  
Usmon shoir, umrim o'tdi,  
Endi netay,  
Payti keldi, pushaymonim  
Bayon etay.  
Eng yaxshisi, Boysun tog'dan  
Biror g'or top,  
Chorig'imni sudrab unga  
Kirib ketay.

AQSh. Texas. 2015 yil 30 avgust

✍️ Abdulla Oripov

#### INSON HIMOYASI

Texasda bor ekan ajib bir orol,  
Odamlar yasharkan berib qo'lga qo'l.  
Lekin kim kamsitsa ularni, darhol  
Jarima to'larkan, anchagina mo'l.

Men bundoq qonunni eshitdim ilk bor,  
Unga bo'ysunarkan shoh ham, gado ham.  
Aybdorning qutulib ketmog'i dushvor,  
Naryog'i, jinoyat tomon bir qadam.

Goh ellar kechmishin olaman yodga,  
Naqadar ayanchli, mash'um naqadar.  
Qaydadir bandalar kelib hayotga,  
Bir umr kamsitish domida yashar.

Ko'channing bolasi, tirrancha, sayoq,  
O'zini tutadi kiborlarga xos.  
Mo'ysafid dehqonni ko'rgan ondayoq,  
Qishloqi chol, deya tahqirlashi rost.

Bu illat yer yuzin qoplamish yomon,  
Hechkim parvo qilmas bundayin holga.  
Ular yo'li tushib Texasga tomon,  
Kelib ketsaydilar o'sha orolga.

2015 yil 10 avgust. AQSh, Texas.

Izoh: Texas shtatining bir orolida, mahalliy aholini haqorat qilgan kimsa qonun bo'yicha juda katta jarima to'lar ekan. Muallif.

✍️ Abdulla Oripov

#### AJDODLAR

Turlik toifalar bordir dunyoda,  
Izhor qiladilar turlik niyatni.  
Goho bir-biridan bo'lib ziyoda,  
O'rnatmoq bo'larklar haqqoniyatni.

Haqqoniyat qayda? Qaysi odamda?  
Yoxud kelgusiga bog'liqmi bu gap.  
Ketgan sira qaytmas ushbu olamda,  
Endi kelgusini qo'llagin, yo rab.

Shu taxlit yashaymiz, goh hud, goh behud,  
Goh totib, goh totmay hayot nafasini.  
Kimki ajdodini etmagan unutm,  
Zamon unikiidir, oshin-oshasin.

1960 yil

✍️ Abdulla Oripov

## HAYOT YO'LLARIDA

Ikki guruh bordir asli dunyoda,  
Birovining oti Yalovchilardir.  
Lekin faollikda undan ziyoda,  
Ikkinchisin oti Talovchilardir.

Birinchisi bo'lsa, tunu kun yotib,  
Xojasin oyog'u ketin yalaydi.  
Ikkinchisi esa, hujjat ko'rsatib,  
Kuppa-kunduz kuni seni talaydi.

Qancha fir'avnlr kelib ketmagan,  
Yer yuzin qaqshatgan qanchalar xoqon.  
Va lekin ularga kuchi yetmagan,  
Balki kishi bilmas, qo'llagan pinhon.

Men-ku yoqtirmasman g'alvani aslo,  
Ehtimol, hayotda yo'q kamu ko'stim.  
Xaqsizlik balosin ko'rganda, ammo  
Yuragim ezilib ketadi, do'stim.

Bir umr sog'inib o'tdim ziyoni,  
Bandidek men unga talpindim, bo'zlab.  
Yorug' ko'ray, dedim shu tund dunyoni,  
Mudhish sovuqlarda qolsam ham muzlab.

AQSh. Texas. 2015 yil 27 avgust

✍️ Abdulla Oripov

## DIALEKTIKA

Men hayotni sobit holda ko'rmadim aslo,  
Tuzilgan u agarlardan va magarlardan.  
Deylik, biror firibgarga duch kelgan asno,  
Iboratmi deysan hayot firibgarlardan.

Qattol urush davom etgan elning shoiri  
She'r bitadi hasratga yo g'azabga to'lib.  
Kimki agar biror dardning bo'lsa asiri,  
Tuyuladi butun olam unga dard bo'lib.

Sevishganlar uchun esa dunyo bir jannat,  
Oy-chi, nondek tuyuladi qorni ochlarga.  
Butkul hayot diydasi yo'q tosh erur faqat,  
Kuning qolsa deylik faqat bag'ritoslarga.

Faylasuflar so'z ochsa gar abadiyatdan,  
O'ylaysizki, har bir onim manguликка yor.  
Inson zoti ayri tushmas aslo niyatdan,  
Ne tilasang shuni bergay, degan gap ham bor.

Modomiki shundoq ekan tabiat asl,  
Sobit narsa qanday o'zi? Boqiylik qayon?!

Bo'larmikan bu dunyoda bir murod hosil,  
Tugallikka yetisharmi biror kun jahon!

Shoir ahli kuylarmikan bitta qo'shiqni,  
Bormi ekan bu dunyoda oliy, komron dam.  
Quyosh bir kun chulg'armikan har to'rt ufqni,  
Tug'ilarmi baxti komil, bus-butun odam?

Bu — bir xayol, chorasi yo'q armondir xolos,  
Hamishalik qo'shni erur kunduz bilan tun.  
Yolg'on dasti gar dunyoda bo'lolmas daroz,  
Lekin haqning qo'llari ham emasdir uzun.

Chora bitta: Niyatingni ezgulikka bur,  
Faqat shunda go'zal bo'lib ko'ringay falak.  
Yo'qsa hasrat og'ushida o'tgaydir umr,  
Bamisoli o'ra ichra qolgan kapalak...

1985

✍ Abdulla Oripov

#### KUN KO'RISH

Chalpak yoqqan emas osmondan aslo,  
Har kim nasibasin albatta yegan.  
Odam bolalarin lafzida ammo,  
Bitta ibora bor – Kun ko'rish degan.

Asli bu qismatga yo'liqqan har kas  
Orzu-umididan ayrilgan demak.  
Qayda bir luqmani ilg'adimi, bas,  
O'sha tomonga u yugurgan beshak.

Kun ko'rish degani o'rta dillarni,  
Amallab yashashdan bir belgi, nishon.  
Zabtiga olgay u hatto ellarni,  
Ne-ne mardlarni ham aylagay yakson.

– Nega yolg'on aytding, aldading nega,  
Nega haqni yoqlab bermading turish?!  
Deydi: – Sen haq deysan, jon kerak menga,  
Kun ko'rish kerakmi, axir, kun ko'rish.

Kun ko'rish yo'lida yurarlar kuylab,  
Kun ko'rish dardida to'karlar ko'z yosh.  
Agarda teranroq qarasang o'ylab,  
Jallod ham kun ko'rish uchun olgay bosh.

Faqat kun ko'rish deb qilingan ishdan,  
Bahra toparmikan birorta banda.  
Odam charchar bir kun bunday yumushdan,  
O'zini o'ylar-ku hech bo'lmaganda.

Ulug' orzularga etgandi da'vat  
Fidoyi insonlar – benazir zotlar.

Nahotki, kun ko'rish yo'lida faqat  
Yonib bitgan bo'lsa o'sha hayotlar.

Insof bera qolsin har kimga Egam,  
Hayot ko'zguna turlanmoq nechun?!  
Ehtimol, mana shu satrlarni ham,  
Yozib turgandirman kun ko'rish uchun.

2014 yil 8 noyabr

✍️ Abdulla Oripov

#### TIRIKLIK

Turfa kurashlardan charchadim deysan,  
Xizmat jonga tegdi, yo'qdir halovat.  
Arzimas narsa deb asabing yeysan,  
Tiriklik nima bu? g'ammi, farog'at?

Kimga aytmoqdasan hasratingni, oh,  
Sen shifo so'raysan bemordan nechun.  
Qirq besh yil osmonga tikibman nigoh,  
Oddiy haqiqatga yetmoqlik uchun.

Bir teri ichida ming marta ozib,  
Ming marta to'lishar jonivorlar ham.  
O'n besh kun jamolin ko'kda ko'rgazib,  
O'n besh kun falakda oy topar barham.

Bu yorug' olamga boqsang, aslida,  
Oliy baxt sanalur o'lmayin yurmoq.  
Baxtdir bu — hayotning ko'hna qasrida,  
Nabirang daf'atan chalsa qo'ng'iroq.

Kimdir choh ichra ham davronin surgay,  
Kimdir cho'qqida ham o'tga kelgay duch.  
Ko'zing ochiq esa har neni ko'rgay,  
Bir yon do'st, bir yonda — nafrat bilan o'ch.

Yuz yil yashasa ham bechora bir zot,  
To'ymadim hech, debdi, bu nechuk hikmat.  
Oh, qandoq shirindir shu taxir hayot,  
Oh, qandoq go'zaldir shu juldir qismat.

1986

✍️ Abdulla Oripov

#### BAXILLIK

Men deb bong urasan shomu saharda,  
Go'yo haqqoniydek aytar so'zlaring.  
Hammani bir xilda ko'rsang agarda,  
Teshilib qolarmi sening ko'zlaring.

Yo'lning chekkasida majruh bir inson,  
Madad tilab turar sendan ehtimol.

Sen unga uzatsang agar parcha non,  
Qo'llaring mayishib, bo'larmikan shol.

Qarshingda turibdi yosh bir iste'dod,  
Balki olamshumul bo'lajak daho.  
Bir og'iz so'z aytib, bersang gar imdod,  
Tillaring kesilib qolgaymikan yo?

Bir siymo ilmning bo'lmish sardori,  
Balli, el-yurtiga olib kelmish shon.  
Sen uni qutlasang ko'plar qatori,  
Chiqib ketarmikan tanangdagi jon.

Afsuski, yaxshilar tortadi kulfat,  
Yomonlar g'olibdir, yotar qalashib.  
Yo'qdir bundaylarda zarra fazilat,  
Dunyoga kelmishlar ular adashib.

AQSh. Xbyuston 24.7.2015

✍ Abdulla Oripov

Bayot

Qo'ling ochiq ketma dunyodan, jo'ra,  
Bir o'tov, to'rt echki mayli bisoting.  
Har kimga mingashib yurgandan ko'ra,  
Qirchang'i esa-da bo'lsin o'z oting.

Balki tortinchoqdir farzand - arjumand,  
Do'stlar ham ko'kdagi qushlarga monand.  
Biri novvot bo'lsa, birovi-chi qand,  
Ular bor- shirindir taxir hayoting.

Olis safarlarda yolg'iz qolsang ham,  
Umidsiz o'ylarni dilga solsang ham.  
Madorsiz yiqilib, butkul tolsang ham,  
Elu yurt bo'lgaydir sinmas qanoting.

O'kinma, lafzi yuq nomardni ko'rib,  
Muttasil aldaydi yoningda turib.  
Nodonlar yursalar davronin surib,  
Chidaysan bariga, bordir saboting.

Sening boshqalardan farqing yo'q aslo,  
Cen ham bandadirsan bandalar aro.  
Bir kun orzularing chorlasa ammo,  
Boshlab borg'usidir she'ring - bayoting.

AQSh. XBYuSTON, 27.07.2015.

✍ Abdulla Oripov

Xayol va hayot

Magar chiqib ketsam tog'larga tomon,  
Bo'lardim ayiqlar bilan suhbatdosh.

Do'lana terardim balki yonma- yon,  
Mehribon do'stlardek tunu kun yo'ldosh.

Shung'ib ketsam agar teran ummonga,  
Suvlarning ostida yurardim yashab.  
Baliqda toqat yo'q shovqin- suronga,  
Ular baqirmaydi bizlarga o'xshab.

Bir kun osmonlarga aylasam parvoz,  
Turnalar safida chappor urardim.  
Tanishdir yulduzlar chalib turgan soz,  
Bazmga qo'shilib, jo'r ham bo'lardim.

Bu gaplar amalga oshmagay aslo,  
Endi xayol bilan qolganman butkul.  
Boshqa birovni-ku aytmangiz, hatto  
Nabiram ko'ngliga topolmasman yo'l.

Hanuz taraqqiyot to'xtagan emas,  
G'ordan chiqqan kabi shu zum odamzot.  
Turfa sinovlarga kela oldi bas,  
Lekin o'zligini unutdi, hayhot!

Afsus, qalbsizlikka yuz burdi Inson,  
Aqchadir suyangan murabbiysi ham.  
Tuyg'ular bir chetda qoldilar hayron,  
Bevaqt nafaqaga chiqqandek odam.

Hech kimning sen bilan ishi yo'q zarra,  
Mayli, ko'k toqiga chirog'ingni os.  
Ismingni so'rashmas hatto bir karra,  
Falon raqamdagi bandasan, xolos.

2016 yil 30 aprely

✍️ Abdulla Oripov

## IBODAT

Darvozang tagida poylaydi ajal,  
Achchiq dard bosadi ko'kraklaringni.  
Kimlardir, ko'zingni yumishdan avval,  
Tozalab qo'yadi cho'ntaklaringni.

Derlar, o'limning ham qoidasi bor,  
Ikki gaz yer uchun janjal, mojaro.  
Aqchani kim to'lar? Qaysi azador?  
Endi go'rkov bilan boshlanar savdo.

Hali tugamaydi bu achchiq qismat,  
Kimdir nom talashib aqldan ozar.  
Eng mudhish tomoni, o'tmay sal fursat  
Seni mahv etganlar xotira yozar.

Dunyoda ne'mat yo'q hayotdan aziz,  
Sen unga bag'ishla o'lmas satringni.

Tirik paytingdagi ochirmadi ko'z,  
Kimdan ham so'rarding keyin qadringni?

Yaxshisi o'lmasdan yashamoqlik shart,  
Emaklab bo'lsa ham, yotib bo'lsa ham.  
Uzun kechalari qilgum ibodat,  
Og'irim tushmasin birovga, Egam.

2015 yil 11 iyunь

✍ Abdulla Oripov

HAMShIRA

Hayotingga zomin bo'ldim men,  
Orzularing qoldi beado.  
Tun-kun bemor tepasida sen,  
O'ltirasan, uyqudan judo.

Kelgan odam bemorni ko'rgay,  
Xabar olar yaqin va yiroq.  
Garchi ular yoningda turgay,  
So'rashmaydi holingni biroq.

Birdan qo'shni palatadan ham,  
Ovoz chiqar "Hamshira" degan.  
Yugurasan u tomon shu dam,  
Osma ukol tugagan ekan.

Qovoqlarin uygancha goho,  
Paydo bo'lar bir to'p shifokor.  
Aslida, sen bergaysan davo,  
Aslida, sen hammaga darkor.

Bir bemoring sog'aydi u kun,  
Qutulgandi kasaldan sho'rlik.  
Bayram bo'ldi bu hol sen uchun,  
Endi horg'in yuzlaring nurlik.

Fursat yetib, beshafqat ajal,  
Boshqa birin aylagay odosh.  
Qarindoshu el-yurtdan avval,  
Sen to'kasan achchiq-achchiq yosh.

Hamma narsa hayotda kerak,  
Ruhni ko'tar, yashagin kulib.  
O'zingsan-ku najotkor malak,  
Ishlayapsan hamshira bo'lib

2015 yil 28 noyabrь

✍ Abdulla Oripov

HIMOYaT

Avval bolalarga qalqon bo'ling, so'ng  
Yoshi ulug'larni aylang himoyat.

Bor erur uchinchi vazifa ham cho'ng:  
Bemor odamlarga ko'rsating shafqat.

Shundoq qurilgandir afsuski dunyo,  
Ularning jismiga yozda o'tar nam.  
Qurtu qumursqalar hayiqmas aslo,  
Cho'qilab qochadi hatto chumchuq ham.

2014 yil 5 may

✍️ Abdulla Oripov

MULK

Yalintirmas hech arslon,  
Chegarasin sotmaydi bo'ri.  
Mulkni faqat pullagay inson,  
Kambag'alning quriydi sho'ri.

Ariqdagi suvni ham hatto,  
Tarqatmaydi birovga tekin.  
O'ziniki uchrasa ammo  
Hadya qilar hammasin lekin.

Daryoni ham qay bir momosin  
Sepi deydi, g'oyat yarashiq.  
Yaylovlarni katta bobosin,  
Dalasi deb hisoblar ochiq.

2015 yil 20 iyunъ

✍️ Abdulla Oripov

ISHONCh KO'PRIKLARI

Yuzdan parda ketsa,  
Dildan diyonat,  
Mehr rishtalari zimdan uzilsa;  
Yuraklarni bossa shubha, xiyonat,  
Ishonch ko'priklari buzilsa;  
Yetimlar haqidan qo'rqmasa birov,  
So'qmoqqa aylanib ketsalar yo'llar;  
Qiblagohlar osiy, tug'ishganlar yov,  
G'aznalarga cho'zilsa qo'llar;  
Bolalar ruhiga hayot degan dars  
Manmanlik urug'in joylasa;  
Oshiqlar ko'chada ma'shuqasin emas,  
Kimningdir qadamin poylasa;  
Elning shoirlari g'anim zotlar kabi  
Bir-birlarin g'ajib-esalar;  
Minbarlarga chiqsa ko'cha-ko'yning gapi,  
Andishani qo'rqoq desalar...  
Bunday yurtda endi qirg'in shart emas,  
Vabo ham qochadi undan yiroqqa;  
Hatto daryolari qurir basma-bas,

Hatto tuproqlari tushar titroqqa.  
 Xalqim, bundaylarni ko'rgansan azal,  
 Ko'p chekkansan ular ozorin, dog'in,  
 Sen yengib o'tgansan, lekin har mahal,  
 Xalqim, topinaman o'zingga tag'in.

1986

✍ Abdulla Oripov

#### XUSUMAT

Dunyoning bori shu,  
 Har qanday zot ham,  
 Aybin olavermas bo'yniga.  
 Balki, shu boisdan, qanchalar odam,  
 Tosh solib yuradi qo'yniga.

Xusumat, deydilar ushbuning otin,  
 Dastidan yig'inlar, uylar bezovta.  
 Bezovtadir hamma oshkor yo botin,  
 Azalar bezovta, to'ylar bezovta.

Har holda bo'lmagay qiyomat qoyim,  
 Bularning ko'plari quruq savlatlar.  
 Yomondir, yomondir, qo'yniga doim,  
 Tosh solib yursa gar davlatlar.

Gar ular yursalar kuchin pesh qilib,  
 Kim tinglar zaminning dardli na'rasin.  
 Mayda toshchalar-ku o'tar, ishqilib,  
 Uning kattasidan xudo asrasin.

1986

✍ Abdulla Oripov

#### ChEKSIZLIK

Deydilar, fazoning chegarasi yo'q,  
 Milliard yulduzlarning so'ngi ham fazo.  
 U shu qadar cheksiz, shu qadar buyuk,  
 Xayolga sig'dirib bo'lmaydi hatto.

Ba'zan fazolarga boqaman uzoq,  
 Ruhimga shu tuyg'u sig'mas gupirib.  
 Cheksizlik yurakni qisganda, shu choq,  
 Torgina uyimga ketaman kirib.

1969

✍ Abdulla Oripov

\*\*\*

Oilada tug'ilsa go'dak  
 Unga suyub qo'yarlar ism.

Gar bog'lansa ikkita yurak,  
Do'stlik deyish bo'lgandir rasm.

Volidalar go'dagi uchun  
Beshik olib, tortadilar osh.  
Xuddi shunday, do'stlar ham u kun  
Bir-biridan aylaydi maosh.

Inson yashar, payti ham kelar  
To'xtab qolar umr — yugurik.  
Lekin, do'stlar, ayting, ne bo'lar  
Do'st-do'stidan ayrilsa tirik?

Tobut o'tar so'nggi ko'prikni,  
Qaro yerga uni qo'yarlar.  
Do'stlar, ayting, so'ngan do'stlikni  
Qayga olib borib ko'marlar?

Marhumlarga ochishib aza  
Liboslarni ko'kka bo'yarlar.  
Do'stlar, ayting, do'stlik so'nganda  
Qanday yig'lab, qanday kiyarlar?

Azalilar ko'rsa yomon tush,  
Mozor uzra sukut etarlar.  
Tirik turib qayta kelsang duch,  
Unda, axir, qayga ketarlar?

Hayhot, ilk bor ingradi ko'nglim,  
Bir bargdayin titradim, toldim.  
Men do'stimdan ayrildim bugun,  
Tirik turib, ayrilib qoldim.

Yozarmidim yig'loqi baytni,  
Chekarmidim men axir nola,  
Do'stlar, agar boshlanmasaydi  
Ikki qalbdan buyuk oila.

Yozarmidim yig'loqi baytni,  
Titarmidim ko'zda yosh bilan,  
Do'stlar, agar boshlanmasaydi  
Tog' qulashi ikki tosh bilan.

Do'stlar, ayting, dil yonmaganda,  
Chekarmidim shunchalar oh-zor.  
Agar, agar... Hech bo'lmaganda  
Topilsaydi ko'mgali mozor.

1965

✍ Abdulla Oripov

BOZOR

Ko'nikasan, ochlikka, bolam,  
Senga hech kim beri kel demas.

Yopiq senga pullik yerlar ham,  
Qondoshlaring g'amingni yemas.

Yer yuzida shundoq bir davr,  
Shundoq udum bo'ldi hukmron:  
Ilmda yo'q zarracha qadr,  
Daholar ham kezar sargardon.

Bu tizimning nomidir - bozor,  
Bas kelolsang seniki marra.  
Axtarmagin insofni bekor,  
Aldanasan kunda yuz karra.

Qayga borma, baribir, shu hol,  
Bozor yetgan har qanday joyga.  
Boylar boyni taniydi darhol,  
Suv, albatta, oqadi soyga.

Sen turmushdan ibrat ol, bolam,  
Bo'rini ham boqqan oyog'i.  
Chumolining jag'i mustahkam,  
Cho'ponning ham bordir tayog'i.

2015 yil 8 iyunь

✍ Abdulla Oripov

KO'CHA

Ko'cha to'la odam,  
Tinib turmas bir dam,  
Aralash odimlar kichik-kattasi.  
Lekin g'alatiroq tashlaydi qadam,  
Ular orasida bittasi.

Goho gaplashadi o'zi o'zi bilan,  
Gohida jilmayar, tundlashar goho.  
Nimanidir ilg'ar tiyrak ko'zi bilan,  
To'xtab ko'kka boqar, mast emas, ammo.

Nimadandir birdan zavq ham tuyadi,  
Bir sandiqni go'yo ochdi-yu yopti.  
Havoga chiziqqlar tortib qo'yadi,  
Shoirmikan deysan, qofiya topti.

Nogoh hayajondan qizarar yuzi,  
Chala imorati bitdimikan yo?  
Kontraktida o'qir kenjatoy qizi,  
Byudjetga o'tdimikan yo?

Ko'cha to'la odam,  
Tinib turmas bir dam,  
Aralash odimlar kichik-kattasi.  
Hamon o'sha-o'sha tashlaydi qadam,  
Ular orasida bittasi.

Hamon o'yga band u, goh shodmon kular,  
Tegmang, holatini buzhang nogahon.  
O'zini baxtli deb sanasa bo'lar  
Surgan xayoliga ishongan inson.

2013 yil 24 sentyabr

✍ Abdulla Oripov

#### NETGAYSAN

Nodo'st kimsalarga quchog'ing ochib,  
Begona yurtlarda to'ylab netgaysan.  
Tikonli yerlarga qadaming bosib,  
Chamanzor ekan deb kuylab netgaysan.

Tengsiz boylik erur Vatanning bori,  
Daryosi hayotdir, qumligi dori.  
Agar qiz ko'rinsa qo'shnining yori,  
Devordan behuda bo'ylab netgaysan.

Rostgo'yni izladim shavqlarga to'lib,  
Topganda quvondim, topmasam so'lib.  
To'g'rilik turganda, sharmisor bo'lib -  
Yolg'on-yashiqarlarni so'ylab netgaysan.

Senga tanishtiray dunyoni birrov,  
Hali iz tushmagan u tongi qirov.  
Agar sen o'tmasang o'tadi birov,  
Pastu balandini o'ylab netgaysan.

2015 yil 15 iyun

✍ Abdulla Oripov

#### YaNGI AVLOD

Olamning bori shu: Zulmat bilan Nur,  
Hamda barchasini bunyod etgan Zot.  
Qancha haq bo'lmasin ongu tafakkur,  
Mutloq boshqa ekan yashash va hayot.

Boyonna ko'rganda emaklab har on  
Kunini o'tkazgan qanchalar odam.  
Bu qavm do'st bo'lmas aslo, hech qachon,  
Ayt-chi, zarurmikan ular senga ham?

Dovullar umringni sovurdi butun,  
Yetmadi bardoshing, sabru toqating.  
Endi, bari birdir kunduz bilan tun,  
Endi, ortiqchadir qo'lda soating.

Qofiya axtarish balki nodarkor,  
She'rdan azizroqdir aqcha jarangi.  
Lekin tug'ruqxona degan bir yurt bor,  
Uning fuqarosi tamoman yangi.

U hali bilmaydi ushbu dunyoni,  
Bilmaydi savob ne, nimadir gunoh.  
Yumuq ko'zlarida asrar ziyoni,  
Uning istiqbolin qo'riqlar Iloh.

Shoir, tushkunlikka tushmagin aslo,  
Tirik yurganingga shukur qil albat.  
Eng go'zal, eng noyob she'ringni ammo  
O'sha, yangi avlod nomiga jo'nat!

2015 yil 4 iyunъ

✍ Abadulla Oripov

#### YaNGI AVLOD

Olamning bori shu: Zulmat bilan Nur,  
Hamda barchasini bunyod etgan Zot.  
Qancha haq bo'lmasin ongu tafakkur,  
Mutloq boshqa ekan yashash va hayot.

Boyonna ko'rganda emaklab har on  
Kunini o'tkazgan qanchalar odam.  
Bu qavm do'st bo'lmas aslo, hech qachon,  
Ayt-chi, zarurmikan ular senga ham?

Dovullar umringni sovurdi butun,  
Yetmadi bardoshing, sabru toqating.  
Endi, bari birdir kunduz bilan tun,  
Endi, ortiqchadir qo'lda soating.

Qofiya axtarish balki nodarkor,  
She'rdan azizroqdir aqcha jarangi.  
Lekin tug'ruqxona degan bir yurt bor,  
Uning fuqarosi tamoman yangi.

U hali bilmaydi ushbu dunyoni,  
Bilmaydi savob ne, nimadir gunoh.  
Yumuq ko'zlarida asrar ziyoni,  
Uning istiqbolin qo'riqlar Iloh.

Shoir, tushkunlikka tushmagin aslo,  
Tirik yurganingga shukur qil albat.  
Eng go'zal, eng noyob she'ringni ammo  
O'sha, yangi avlod nomiga jo'nat!

2015 yil 4 iyunъ

✍ Abadulla Oripov

#### ShOKOLAD

Cho'ntagimga solib oldim to'rtta shokolad  
Va o'zimga bitta shartni ayladim tayin:  
Kimki meni aldamasa, siylayman albat,  
Shokoladni shu odamga sovg'a etayin.

Kuni bo'yi biror g'olib chiqmadi, ajab,  
 Boz ustiga bilmas edi hech kim shartlarni.  
 Uyga qaytdim, bolalarni bayram deb aldab,  
 Bo'lib berdim cho'ntakdagi shokoladlarni.

2014 yil 28 dekabr

✍️ Abdulla Oripov

#### SEN KABI

Onangni otangga xatlab berganda,  
 Guvoh bo'lmaganman ishongil, axir.  
 Boqursan, yuzingda quv zaharxanda,  
 Dunyoni go'yoki men etdim taxir.

Bosgan qadamimdan chaqnamas olov,  
 Da'vo qilmasman hech abadiyatga.  
 Na qo'rg'on qurdimu na tutdim yalov,  
 Doim yo'ldosh bo'ldim oddiy niyatga.

Boshni ko'p qotirma sen kimsan debon,  
 Kimning xesh, kimningdir andasidirman.  
 O'tkinchi dunyoda men ham bir mehmon,  
 Xudoning sen kabi bandasidirman.

✍️ Abdulla Oripov

#### LAYLI VA MAJNUN

Har kimga hamrohdir hamisha qismat,  
 Kimdir boshin egar, kim ko'ksin kergay.  
 Rasululloh demish: — Allohdan faqat  
 Kim nima so'rasa, o'shani bergay.

Oyoq-qo'lin bog'lab Laylini bir kun  
 Olib kelishdilar Ka'baga tomon.  
 Layli xitob qildi: — Tavba ne uchun,  
 Majnunim bo'lmasa tiyradir jahon.

Ibodot Majnunning navbati edi,  
 U ham oshkor etdi ko'ngil maylini.  
 Ka'baga bosh urib turarkan, dedi:  
 Men sendan so'rayman faqat Laylini.

1992

✍️ Abdulla Oripov

#### QUL VA QUYOSh

Demasman, zulmatda mudom faryod qil,  
 Himmat nuri bilan dilni obod qil.  
 Rasululloh demish:— Oshma haddingdan,  
 Quyosh tutilganda qulni ozod qil!

1992

✍️ Abdulla Oripov

Oллоh marhamati

Oллоhim kimgadir berdi boylik, zar,  
Balki rahm ayladi yo'qsil joniga.  
Va lekin to'ymasin deya u battar  
Nafsni qo'shib qo'ydi yoniga.

Oллоhim kimgadir mansabni berdi,  
Amal poyalarin qildi mustahkam.  
Va lekin narigi tomondan qurdi  
Qaytib tushadigan zinalarni ham.

Oллоhim kimgadir berdi iste'dod,  
Mayli, taratsin deb go'zal kuylarni.  
Va lekin bir umr cheksin deb faryod,  
Unga hamroh qildi hasadgo'ylarni.

2004 yil, mart

✍️ Abdulla Oripov

BIZ

Biz avval ham yomon edik, hanuz yomonmiz,  
Rahmon boqmas, iblis yoqmas sho'rlik insonmiz.  
So'z so'zlasak — mahmadona, jim tursak — soqov,  
Shu tariqa, na bug'doymiz va na somonmiz.

✍️ Abdulla Oripov

Jumboq

Idrokim boricha yashadim faqat,  
Fahm etdim dunyoni baimkon, qat-qat.  
Yolg'iz bir jumboqqa aqlim yetmadi:  
Qaydan tug'iladi, bilmadim, hasad.

1968

✍️ Abdulla Oripov

G'IYBAT

Do'zax yo'llaridan o'tarkan Rasul,  
Atrofga ko'z tashlar edi damodam.  
Kimdir faryod solib yig'lardi nuqul,  
Otashda yonardi o'zga bir odam.

Yo'lning kanorida — shundoq sarhadda  
O'limtik yer edi allaqanday zot.  
Nogoh Rasululloh boqib hayratda,  
Jabroilga dedi: — Bu kimdir, hayhot!

Jabroil aytdikim: — Bunda har kimsa,  
Jazosin olgaydir qilmishiga xos.  
O'limtik yeguvchi bul banda esa,

Umrin g'iybat bilan o'tkazgan, xolos.

1992

📄 Abdulla Oripov

#### KUZ MANZARALARI

Yana dalalarga boshlaydi havas,  
Bog'larda hazonlar yonadi lov-lov.  
Do'stlarim, bu kuzning barglari emas,  
Mening yuragimdan to'kilgan olov.

Shoxlarda mezonlar yaltirar xira,  
Poyida shivirlar mening kuylarim.  
Do'stlarim, bular ham mezonmas sira,  
Bu mening chuvalgan, so'ngsiz o'ylarim.

Quyosh ham falakda bamisli ro'yo,  
U endi yondirmas, yaltirar faqat.  
Do'stlar, u ham endi quyoshmas aslo,  
U olis yoshlikda qolgan muhabbat.

1967

📄 Abdulla Oripov

#### TAʼBIYAT

Sen ketding, qolganlar  
O'ynasin, kulsin,  
Makoning, iloyo,  
Nurlarga to'lsin.  
Aslida, bu dunyo  
Tashvishlaridan  
Qutulib ketganing  
Muborak bo'lsin.

AQSh. Xyuston. 2015 yil 14 oktyabr

📄 Abdulla Oripov

#### O'RMONDAGI VOQEA

Atab dushmaniga yoki do'stiga,  
Bomba tashladilar o'rmon ustiga.

Biroq u negadir portlamay qoldi,  
O'rmon o'rtasida toshday joy oldi.

Hayvonlar qiziqib kela boshlashdi,  
Avval hadiksirab nazar tashlashdi.

— Bu ne? — deb boshini qashladi bo'ri,  
Lol edi arslon ham — hayvonlar zo'ri.

Hech neni tushunmas ayiq va sichqon,  
Anqayib turishar qushlar ham g'ujg'on.

Hidlab ko'rishdilar, yalashdilar, bas,

Anglab yetdilar-ki, uni yeb bo'lmas.

Hayvonlar tarqaldi yig'ilgan joydan,  
Sho'rliklar, bombani bilishsin qaydan?

Aslida ildizi bittadir hayot,  
Yashashga haqlidir jami maxluqot.

Tiriklikka shuni qildingmi ehson,  
Tafakkur sohibi, muhtaram Inson!

2015 yil 3 may

✍️ Abdulla Oripov

## BASHORAT

Rahmatli ustozlar,  
Domlalarim, Siz,  
Dorilfunundagi bilim tayanchi.  
Qabringiz qoshida deyman cho'kib tiz:  
Umringiz yakuni g'oyat ayanchli.

Bashorat qildingiz nimalarnidir,  
Ularning hech biri topmadi isbot.  
Boshga ko'tarardik Sizni baribir,  
Chunki bilmas edik, qanaqa hayot.

Bizga uqildingiz, butkul yer yuzi  
Ketib borayotir noto'g'ri yo'ldan.  
Tarixni yoritar Marksning so'zi,  
Boshqalar baxtini boy bergan qo'ldan.

Bizga uqildingiz, e'tiqod, iymon,  
Ko'p borsa, chilimning tutuni, xolos.  
Sira do'st bo'lmaydi qorni to'q inson,  
Dunyoni yangilash bizlargadir xos.

Bizga uqildingiz, ummon ortida,  
Bir tuzum yotibdi, tagidan chirib.  
Oxir tong qoldingiz tarix oldida,  
Aytgan gaplaringiz aksini ko'rib.

Nahot, o'yin edi inson taqdiri,  
Nahot, o'tgan umr tavakkal yakkash.  
Nahot, jaholatdir bu holning siri,  
Qoldi bo'yningizda basharni aldash.

Rahmatli ustozlar,  
Domlalarim, Siz,  
Achchiq qismatingiz ibratdir biroq.  
Uzr so'ramoqlik shart ekan so'zsiz,  
Bashoratdan avval, foldan oldinroq.

AQSh. Xьyuston. 2015 yil 12 sentyabrъ

✍️ Abdulla Oripov

## MUALLIM

Muallim haqida so'zim ushbu dir:  
 Muallim kamolot ichra ko'z gudir.  
 O'qidim Gerodot, tarixni ko'p bor,  
 Forobiy, Danteni takror va takror.

Barini o'qidim, lol qoldi aqlim,  
 Bariga ustozsan o'zing, muallim.  
 Alisher qalbiga solgan sehr-fayz  
 Sensan, ey muallim, ustoz Abul-Lays.

Qutlug' xonadonda qutlur kalom bu,  
 Hamid Olimjon bu, G'afur G'ulom bu.  
 Buyuk Temur sendan topgandir ta'lim,  
 Sen shundoq, aziz zot, aziz muallim.

Rost aytsam, o'zingsan eng avval dahol,  
 Sen hayot ganjida durri bebaho.  
 Ulug' ayyomingda she'riy kalom bu,  
 Shogirdlar nomidan qutlug' salom bu.

1972

✍ Abdulla Oripov

## USTODI AVVAL

Nega she'r yozmayin yurakdan yonib,  
 Nega ta'zim etmay sizga bu mahal.  
 Nega xizmatigiz qilmay quvonib  
 Ey aziz muallim, ustodi avval.

Sizning ta'limingiz olmagan kim bor,  
 Siz-ku yuraklarda ilk ziyo yoqqan.  
 Olimmi, shoirmi va yo san'atkor -  
 Ilk bor sizga tomon ustoz deb boqqan.

Mitti go'dak chog'idan to umr bo'yi  
 Sizning chehrangizga mamnun boqamiz.  
 Sizgadir yurakning jarangdor kuyi,  
 Oqil Sharafiddin, mashhur otamiz.

Bitta harf dardida riyozat chekib,  
 Oqibat ko'kka ham chiqolgan inson.  
 Ne ajab sizlarni baxtiyor etib,  
 O'rnidan dast turib, bosh egga shu on.

Yolg'iz farzandimiz qolsa tumovlab,  
 Tushamiz vahima, vasvasasiga,  
 Siz-chi, dosh berasiz necha o'n yillab  
 Minglab mitti zotning mashmashasiga.

Buyuk Alisherbek lutf etgan misol,  
 Savod o'rgatdingiz qancha ranj bilan.  
 Qoplab bo'larmikan bu qarzni alhol,

Uzib bo'larmikan yuzta ganj bilan.

Shafqat ham, mehr ham qalbingizda but,  
Na ranju, na horish, ohu volalar.  
Sizning qarshingizda saqlaydi sukut  
Oltmishga kirsam ham shogird bolalar.

Dilda ziyo borki umr sarafroz,  
Mayli, u hamisha baxt bilan to'lsin.  
Ey, aziz muallim, ey, aziz ustoz,  
Bukun bayramingiz muborak bo'lsin.

1980

✍️ Abdulla Oripov

#### MUALLIMLARGA

Nechog' baxtiyorman, ta'zimda shu tob  
Sizning sha'ningizga bitmoqdaman bayt.  
Ne odam bo'lardim, qo'limda kitob  
Biror harf tanimay tursaydim loqayd.

Siz-ku "Alifbo"dan "Qomus" gacha to  
Bari-barisini tanitgan ustoz.  
Ilk bor Siz ko'rsatgan duraxshon Zuhro  
Bukun she'rim ichra tashbehdur mumtoz.

Siz mo'jaz yurakda yoqolgan yog'du  
Oqibat quyoshdek socha olur nur.  
Buyuklar haqqiga qasamyod gap bu:  
Sizdan boshlanadi asli Tafakkur.

Olamda ko'p erur muborak onlar,  
Tabarruk zotlar ham garchand ko'p erur.  
Sizgadir ilk rahmat, aziz insonlar,  
Munis muallimlar, Sizga tashakkur.

1974

✍️ Abdulla Oripov

#### ShOIR YuRAGI

O'tar bu ko'prikdan jamiki jonzot,  
Chumolidan tortib fillar ham o'tar.  
Sultonlar o'tadi goh shod, goh noshod,  
Zanjirlarin sudrab qullar ham o'tar.

Elchilarga o'xshab turfa zamondan  
Shaloq aravalar, "mers"lar o'tadi.  
Ro'baro' kelishib ikki tomondan,  
Bir-biriga tamom terslar o'tadi.

Suyishganlar o'tar suyab bir-birin,  
Buzuvchilar o'tar, o'tar ustalar.

Hushyorlar o'tadi tejab ko'z qirin,  
O'tadi emaklab piyonistalar.

O'tib borayotir ana juft guruh,  
Biri sho'x, birovin ko'zlarida nam.  
Yetaklab bormoqda birini shukux,  
Boshqa birovini yetaklagan g'am.

Oliftalar o'tar - g'arib siyrati,  
Botirlar o'tadi - qalbida o'tlar.  
Beshiklar o'tadi - dunyo ziynati,  
O'tadi lapanglab, vazmin tobutlar.

Muttasil bu yo'lda keladi to'qnash  
Hyp bilan zulumot, o'lim va hayot.  
Bu ko'prik olamning o'ziga o'xshash,  
Bir farqi - sohibi ixtiyorsiz zot.

Ko'prik ostidagi jo'sh urgan daryo,  
Suv emas - o'tganlar taxir ko'z yoshi.  
Har neni ko'targan bir o'zi tanho.  
Bor na ta'mirchisi, na bir yukdoshi.

Bu ko'prik, bu ko'prik qulasa agar.  
Ne hislar qolardi sarson-sargardon.  
Garchi qismatida bor qancha xatar,  
Har nechuk bariga u balogardon...

2000 yil, avgust

✍️ Abdulla Oripov

#### QIZIQISH

Agar yoqmay qolcang,  
Terc bo'lca dunyo,  
Cug'irib o'tirmac biror tishingni.  
Tayyor ishtahangni bo'g'ib mutlaqo,  
Yo'qotar taomga qiziqishingni.

Tag'in cen ko'ziga ko'rincang yomon,  
Tortib olmaca ham amal, ishingni.  
Bormaydigan qilar idorang tomon,  
O'chirar hafcalang, qiziqishingni.

Maydalashib yurmac dunyo yuz burca,  
To'kin ham qilgaydir yozing-qishingni.  
Va lekin loqaydcan gullar qulf urca,  
Co'ndirar borliqqa qiziqishingni.

Bir kuni zerikar o'zi kajraftor,  
Unutar kelajak va o'tmishingni.  
Unga o'yin kerak, o'yinchoq darkor,

---

Yana tiriltirar qiziqishingni.

2012 yil 24 dekabr

✉ Abdulla Oripov

#### TAFAKKUR MADHI

Beruniy sha'niga yo'q aslo ta'rif,  
Kolumb ham davriga yarashgan ko'zdek.  
Biroq hanuzgacha qalam ko'tarib,  
O'zicha kelmagan bu joyga o'zbek.

Sirli yurt sanchiqday bergandi azob,  
Sho'roning kibrli saltanatiga.  
Derdilar, bormangiz, bo'lgaysiz xarob,  
Burjuyning chirigan mamlakatiga.

Magar kelsa hamki birorta sayyoh,  
Yozg'irib yozardi yetgancha kuchi.  
Emishki, ko'chalar to'la ohu voh,  
Mashaqqat karvonin ko'rinmas uchi.

Go'yo payqashmadi g'alabani sof,  
Armstrong oy uzra qo'yganda qadam.  
Yo, falak, bandangda bormi hech insof,  
Shunchalar hasadgo'y bo'larmi odam.

Eplay olmagan u o'zini aslo,  
Butlab ham bermagan birovning kamin.  
Shu bois, dunyoda to'xtamas g'avg'o,  
Shu bois, o'nnglanmas sho'rlik bu zamin.

Va lekin o'zbekka tafakkurdir zeb,  
Ma'rifat merosdir chunki qonida.  
Agar kerak bo'lsa, ilmu fanni deb  
To'y bergay Samarqand Registonida.

AQSh. X'byuston. 2015 yil 20 avgust

✉ Abdulla Oripov

---

#### TAFAKKUR MADHI

Beruniy sha'niga yo'q aslo ta'rif,  
Kolumb ham davriga yarashgan ko'zdek.  
Biroq hanuzgacha qalam ko'tarib,  
O'zicha kelmagan bu joyga o'zbek.

Sirli yurt sanchiqday bergandi azob,  
Sho'roning kibrli saltanatiga.  
Derdilar, bormangiz, bo'lgaysiz xarob,  
Burjuyning chirigan mamlakatiga.

Magar kelsa hamki birorta sayyoh,

Yozg'irib yozardi yetgancha kuchi.  
Emishki, ko'chalar to'la ohu voh,  
Mashaqqat karvonin ko'rinmas uchi.

Go'yo payqashmadi g'alabani sof,  
Armstrong oy uzra qo'yganda qadam.  
Yo, falak, bandangda bormi hech insof,  
Shunchalar hasadgo'y bo'larmi odam.

Eplay olmagan u o'zini aslo,  
Butlab ham bermagan birovning kamin.  
Shu bois, dunyoda to'xtamas g'avg'o,  
Shu bois, o'nnglanmas sho'rlik bu zamin.

Va lekin o'zbekka tafakkurdir zeb,  
Ma'rifat merosdir chunki qonida.  
Agar kerak bo'lsa, ilmu fanni deb  
To'y bergay Samarqand Registonida.

AQSh. X'byuston. 2015 yil 20 avgust

📍 Abdulla Oripov

#### UMMON BO'YIDAGI O'YLAR

Ummon sohilida kezaman bedor,  
Tong qolib Tangrining mo'jizasiga.  
Qulog'im tutaman takror va takror,  
Hayotning abadiy, o'lmas sasiga.

Ezgu diydor uchun aytaman rahmat,  
Mavjlarga qo'shilib ketadi so'zim.  
Tutgan bir qo'limdan kuyovim Ahmad,  
Bir qo'limdan esa Mavluda qizim.

Shukurlar deymanu ko'zim yoshlayman,  
Jajji nabiralar mehriqona.  
Irim, deb ummonga tanga tashlayman,  
Zora, qaytib kelsam sen tomon yana.

Mening ko'z o'ngimdan har lahza, har dam  
Aslo ketgan emas yurtim jamoli.  
Uzoq bu ummonda suzib yursam ham,  
Yuzimga urildi go'yo shamoli.

Hamisha o'zingdan oldda bo'l, Inson,  
Bu dunyo barchaga barobar, bilgil.  
Tepangda turgan shu dumaloq osmon,  
Sharqda ham mavjuddir, tasavvur qilgil.

Alloh dargohiga ruxsatin berib,  
Taklif etilsaydi jami odamzod.  
Boshqalar qatori ko'ksini kerib,  
O'zbek ham yurardi mamnun hamda shod.

Xudo yaratmagan sarhadlar yasab,

Bandasi orttirgay o'ziga malol.  
U yuksak bo'lmadi tog'larga o'xshab,  
Keng ham bo'lolmadi ummonlar misol.

O'zga ma'volarga keldim men nechun,  
Begona joylarga mehrimni sochib.  
Olis yo'llar bosdim sihatim uchun,  
Balki g'avg'olardan nariga qochib.

Bir mantiq hayotda uchraydi biroq,  
Qoshida milyonlar o'yga tolgaydir.  
Yomonlik tilagan yashaydi uzoq,  
Yaxshilik qilganlar nochor qolgaydir.

Qo'shnining mushugi erinmay aslo,  
Bizning yerto'lada ovlaydi sichqon.  
Hozircha tush menga mansubdir, ammo,  
U ham qo'lga tushgay, topsalar imkon.

Afsuslar chekaman Mahshargacha to,  
Unutdim o'z arkim ko'ngurasini.  
Nima deyarimni bilmasdan hatto  
Chalдим birovlarining do'mbirasini.

Bugun hech kimsaga keltirmas sharaf  
Yasama shuhratu soxta savlatlar.  
Lekin iymon keltir tegrangga qarab,  
Bordir buyuk zotlar, ulug' davlatlar.

Janob Rasululloh aylab marhamat,  
Chaqirmish ummatin bardosh, sabrga.  
Dedilar, o'tganni qarg'amang minba'd,  
Tegmang ular yotgan go'rga — qabrga.

Meni — ku tiriklay mahv etdi bular,  
Hatto bezdirdilar butkul olamdan.  
Bunday qabohatdan tog'lar ham qular,  
Dengizlar sho'r tortar bunday alamdan.

Qirg'iy uchib yursa hovling uzra gar,  
Tovuqda qolarmi birorta jo'ja.  
Yurtni taladilar necha- necha g'ar,  
Necha qoracha- yu, necha bir xo'ja.

Menga ajablanib qarama, bolam,  
Hamrohing bo'lolsin bardosh va toqat.  
Men balki keksayib, charchagan odam,  
Xolislik izlagan kuychiman faqat.

Topsam ezgulikni chulg'adi surur,  
Barobar tuyuldi yozim va qishim.  
Adolat qalbimga baxsh etdi huzur,  
Boshqa yumush bilan yo'q zarra ishim.

Mudom hayolimda u qutlug' ajdod,

Muborak taftlari quyoshlar qadar.  
Magarkim, ularga ekanman avlod,  
Nega yo'qolayin nomsiz va badar?

Zuryodim erursan o'zing, nabiram,  
Olgin yulduzlarni qo'lingni cho'zib.  
Axir qonim jo'shar taningda shu dam,  
Nega sen ketmassan mendan ham o'zib.

Bir umr kurashdik orzular uchun,  
Havoyi so'z aytib, o'rtama jonni.  
Dunyo karvonining boshida bir kun  
Ko'rsam yetarlidir, O'zbekistonni.

AQSh. Atlantika. 2015 yil 1 sentyabr

✍️ Abdulla Oripov

#### KEKSA MUHOJIR

— Nega qadding egik, nega boshing xam,  
Nega nigohingni tortadi tuproq?  
— Mening yer ustida tanishlarim kam,  
Mening yer ostida do'stlarim ko'proq.

1986

✍️ Abdulla Oripov

\*\*\*

Hali oldindadir go'zal kunlarim,  
Hali lab tegmagan kulgular oldda.  
Vaznga tushmagan qo'shiqlar oldda,  
Hech nima emasdir bu ko'rganlarim.  
Hammasi oldinda, g'am ham, alam ham,  
Ayriliq ham, qanotlari zil...  
Sakson yoshli bobo, sen ham dunyoning  
Hammasini ko'rdim, demagil.  
Aslo unday dema,  
O'n gulimdan biri ham  
Ochilmagan deb turgil har vaqt.  
Hammasini ko'rdim,  
To'ydim degan kuning, bilsang,  
Yashamoqqa qolmaydi hojat.

1960

✍️ Abdulla Oripov

#### VAFO

“Menga vafo qilmagach sanam  
Xotinlarga hurmatim nechun?”  
Shu baytlarni yozayotgan dam  
Osonmidi Lermontov uchun.

Endi misga aylangan oltin,  
Vafo so'zin anglashar arang.  
Lermontovni ayblashdan oldin,  
Hayotga ham qayrilib qarang.

2015 yil 8 fevralъ

✍ Abdulla Oripov

#### MANTIQ

Dunyodagi jamiki ne'mat,  
Inson uchun yaralgan, derlar.  
Daryolar ham tegrada faqat  
Bizlar uchun taralgan, derlar.

Yer ostida konlar ham shundoq,  
Tayyorlangan faqat biz uchun.  
Yog' bilan sut, patir va qaymoq  
Oshiradi tanamiz kuchin.

Men mantiqni sevdim juda ham,  
Lekin chiqdi savollar doim.  
Xo'sh, kim uchun yashaydi odam?  
Yolg'iz O'zi bilgay Xudoyim.

AKSh, Xъyuston, 10.09.2016

✍ Abdulla Oripov

#### ROSTGO'YLIK

Meni laqillatib,  
Aytaverma so'z,  
Mana bu otashdir,  
Mana bu-chi, muz.  
Qurbaqa emasdir  
Malika aslo,  
Yaxshini yaxshi de,  
Yovuzni yovuz.

2015 yil 9 sentyabrъ. AQSh, Xъyuston

✍ Abdulla Oripov

#### XONAKI FIL

Yillarim o'tdilar,  
O'rgandim qo'lga,  
Aylandim siz ko'rgan  
Xonaki filga.

Garchi xo'jayinim  
Qiltiriq, oriq,  
Jonimni sug'urib  
Olmog'i aniq.

Firib tushmasaydi  
 Agar yoniga,  
 Uloqtirar edim  
 Hind ummoniga.

Qamchin va tayoqning  
 Zahrin bilmabsiz,  
 Dunyoga kelmabsiz,  
 Hali kelmabsiz.

2015 yil 4 sentyabr. AQSh, Xbyuston

✍️ Abdulla Oripov

#### MASʼULLAR

Yerda taraqqiyot avjiga mindi,  
 Ega topilgaydir har qanday korga.  
 Avval bitta qassob yetardi, endi  
 O'nta qassob bordir bitta qo'chqorga.

Ilgari zamonlar dovrug'i baland,  
 Bir baxshi yashardi ovulda g'olib.  
 Bugun katta-kichik ijod bilan band,  
 Kuylar, xalacho'pni qo'liga olib.

Qachondir kattakon mahalla-ko'yni,  
 Uddalab kelardi yolg'iz oqsoqol.  
 Hozir rota bo'lib boshqarar to'yni,  
 Basdir, yodda qolgan uch-to'rtta maqol.

Gaplarim kinoya, pichingdan yiroq,  
 Bu - yangi asrning mutoibasi.  
 Mas'ullar yanada bo'lsalar ko'proq,  
 Shakllanib borar halq toifasi.

Go'daklar o'zini posbon deydi cho'ng,  
 O'yinchoq miltig'in otib tolmaydi.  
 Hamma qo'riqchiga aylangandan so'ng,  
 Qo'riqlanadigan narsa qolmaydi.

Xo'sh, undan keyin-chi? Yuz berar ne hol?  
 Yana majlis qilib, yo'riqlashadi.  
 Vazifa ko'rinib turibdi yaqqol:  
 Endi bir-birlarin qo'riqlashadi.

2015 yil 3 sentyabr. AQSh, Xbyuston.

✍️ Abdulla Oripov

#### ChALA IMORAT

Og'zin ochib yotar chala imorat,  
 Atrofi o'rayu toshdan iborat.

Har yon chakalakzor, burgan va yantoq,

---

Ostona o'yilgan, uzilgan ravoq.

Xotirami deysan u qattol jangdan,  
Yo yodgor asrlar qoldirgan changdan.

Qora tuynuklarda uvillar shamol,  
Qamish tom gajirlar mahzun, bemajol.

Bahor, yoz o'tadi, hanuz u chala,  
Kalamushlar g'uj-g'uj, qushlar xam gala.

Tashlandiq bu uyning sohibi kimdir?  
Yo falak! Bu holning sababin bildir!

Bir qush yarim tunda beradi sado,  
Savolimga javob qilganday go'yo:

- Ne kerak gapingning nega, negasi,  
Yo shoir, yo marhum buning egasi.

2002 yil, avgust

✍️ Abdulla Oripov

O'ZBEKMAN

Yangi bir asrning ostonasi bu,  
Yetishdim umrimning qutlug' yoshiga.  
Tilimda shukrona, dilimda g'ulu,  
Tarix sarkotibin keldim qoshiga:

Mana, men o'zbekman, qo'limda tug'im  
Va barcha a'molim bitilgan kitob.  
Shuning ichidadir borim va yo'g'im,  
Shuning ichidadir men uchun oftob.

O'zbekman, inshoolloh, iymonim butun,  
Tilim qisiq emas bashariyatdan.  
Kimgadir tengdirman, kimdandir ustun,  
Zuvalam qorilgan samimiyatdan.

O'zbekman, gohida iqbolim kulib,  
Gohida o'zimdan chiqqan ofatim.  
Dunyoni olsam-da jahongir bo'lib,  
Go'dak yig'isiga yo'qdir toqatim.

O'zbekman, qanchalik jafu chekmayin,  
O'zimga haq edim, o'zimga haqman.  
Yashadim yovlarga bo'yin egmayin,  
Bugun o'z erkiga erishgan xalqman.

Istiqlol, ketma yurt peshonasidan,  
Tole, tark etmagin bizni ilohim.  
Mana, yangi asr ostonasidan  
O'tdim. Bismillohir Rohmonir Rohiyim.

2000 yil, dekabr

✍ Abdulla Oripov

#### IMTIHON

Sen Vatan haqida berma ko'p savol,  
Lof urma Vatanning muhabbati deb.  
Uni mansab kabi aylama xayol,  
Yoxud ma'ruzangga emasdir u zeb.  
Vatan tanangdagi jondir, qondir bu,  
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Bu ulug' sevgida ilohiylik bor,  
Vatanni chin farzand faromush etmas.  
Menga o'z tuyg'umni o'rgatma zinhor,  
Inchunin, kibrning bozori o'tmas.  
Rost gapni yolg'ondan farqlar ondir bu,  
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Asl qahramon kim yorug' dunyoda?  
G'oyasin ta'maga almashmagan zot.  
Chug'urchuq ko'paysa haddan ziyoda,  
Burgut bo'lib yashash oliy mukofot.  
Qul ham yurtin sevsa shohdir, xondir bu,  
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Garchi ko'hna zamin umum makondir,  
Insonning har joyda yonsin chirog'i.  
Mo'jaz bo'lsa hamki, kulbang oshyondir,  
Ona dargohidek uning quchog'i.  
Sen uchun poyonsiz kahkashondir bu,  
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Azal musofirdir dunyoda odam,  
Ruhim garchi sobit, muallaq tanim.  
Bir umr qo'yningda muqim tursam ham,  
Sog'inib yashadim seni, Vatanim.  
Mehr bir, nafrat ham bir tomondir bu,  
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

Mayli suymasinlar meni g'animlar,  
Yo'limni to'ssinlar raqiblar hatto.  
Vatan har qayda ham mayoqdek imlar,  
G'ururim yuksalar samogacha to.  
Hech kimga berguvsiz dovrug', shondir bu,  
Vatanni sevmoqlik imtihondir bu.

2015 yil 24 iyul. AQSh, Xbyuston.

---

Abdulla Oripov